

# 2018 yil yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## RAQAMLAR

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **32,6 foizga** ko'paydi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **104,2 foiz**.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **51,4 foiz**.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 664,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 132,6 foizni tashkil qildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) sanoatda - 140,5 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 80,6 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 110,3 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 11,2 punkt), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatning - 132,4 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 1,9 punkt) o'sishi kuzatildi, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,3 foizga (o'sishiga qo'shgan hissasi 6,3 punkt) bajarilmadi.

## 2018 yil yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 115,3 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir (lignit) qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 43,1 foizga, *tog'-kon sanoati va ochiq konlarni izlash* sanoatining boshqa tarmoqlari 12,5 foizga oshganligini, xom neft va tabiiy gaz qazib olish 0,4 foizga ko'payganligini kuzatish mumkin.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 830,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 140,5 foizni tashkil etdi.

O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 foizga, tekstil mahsulotlari chiqarish hajmi 3,8 martaga oshganligini va kiyim-kechak, yaxna ichimliklar ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 foizga kamayganligini kuzatish mumkin.

### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan (96,7 foiz) kamayganligi kuzatildi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,7 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan - 132,4 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bajarilganligi - 136,3 foizga, suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash - 126,5 foizga, bajarilganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 341,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 4,2 foizga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 51,4 foizni tashkil etdi.

### **2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'atlari**




# 2018 yil yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018

2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 25,0 %dan 2018 yilning yanvar-may oylarida 27,0 %ga oshishi kuzatildi. Nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi esa 70,2 %dan 68,9 %ga pasaydi.


## Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Jarqo'rg'on tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,2 % ulushini), Denov (14,6 %), Sho'rchi (12,3 %) tumanlari va Termiz shahri (14,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## 2018 yilning yanvar-may oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



# 2018 yil yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

2018


## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 foizga bajarildi. O'z navbatida, kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 35,7 foizni tashkil etmoqda.

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 1813 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 372 tasi Termiz shahrida, 212 tasi Denov, 140 tasi Termiz, 140 tasi Jarqo'rg'on, 130 tasi Sariosiyo, 127 tasi Uzun, 123 tasi Boysun, 118 tasi Qumqo'rg'on, 106 tasi Sho'rchi, 93 tasi Sherobod, 69 tasi Angor, 67 tasi Muzrabot, 60 tasi Qiziriq va 56 tasi Oltinsoy tumanarida joylashgan.

## 2018 yil 1 mart holatiga ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik



Joriy yilning yanvar-may oylari davomida viloyatda 228 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 17,5% Termiz shahri, 14,0% Denov, 9,2% Sho'rchi, 9,2% Sariosiyo, 7,5% Jarqo'rg'on, 7,0% Termiz tumanlariga to'g'ri keladi.

**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul: Z.Turanazarov**

**Aloqa telefoni: (0376) 223-07-24**